



**№3/2024**

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ADPI  
Ilmiy xabarnomasi**

## MUNDARIJA

	<b>PEDAGOGIKA</b>
<b>Yulbarsova X.A.</b> Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi va tavsifi .....	4
<b>Xushnazarova M.N.</b> Bo'lajak o'qituvchilarни ijtimoiy pedagogik amaliyatga tayyorlashda pedagogika fanining samarali usullaridan foydalanish .....	10
<b>Raxmedova M.A.</b> Mahmud az-Zamaxshariyning ma'naviy merosidan yoshlarni axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari .....	13
<b>Ismoilov Y.Q.</b> Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning texnologik masalalari .....	17
<b>Iminova H.M.</b> Ta'lim tizimiga konsentrangan ta'limni integratsiya qilishning zamonaviy pedagogik tendensiyalari .....	20
<b>Muladjanova G.A., Mullajonova M.D.</b> Oliy ta'lim talabalarning sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish kompetentligini takomillashtirish .....	25
<b>Wang Ping.</b> Exploration of ethnic music elements in chinese piano works .....	29
<b>Kadirov A.M., Ergasheva Sh.Q.</b> The role of fine arts in installing the values of human dignity in general education pupils .....	32
<b>Nadirxanova N.A.</b> Enhancing creative competence in students through the steam educational methodology: integrating visual arts and engineering graphics .....	38
<b>Axmedova D.X.</b> Interfaol usulda rag'batlantirishning o'quvchilar ta'lim-tarbiyasiga ijobjiy ta'siri .....	44
<b>O'rinboyev M. I.</b> Fizika o'qitish amaliyotida metakognitiv faoliyatlarni takomillashtirish .....	48
<b>Burxonova M.M., Sirojiddinov B.A.</b> Amaliy mashq va masalalarning kontekstual asoslari hamda umumta'lim mabablarda qo'llanishi bo'yicha pedagogik-metodik aspektlar .....	51
<b>To'raxonova B.T.</b> Bo'lajak pedagog-psixologlarni tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	54
<b>O'smanova D.Z.</b> Zamonaviy dars jarayonida adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirish .....	57
<b>Xudoberganova M.A.</b> Talabalarga adabiyotni o'qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning samarali texnologiyalari .....	61
<b>Iminova D.N.</b> Innovativ loyihalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni .....	65
<b>Abdulmadjidova M.D.</b> Ilk o'spirinlik davrida mehnatga munosabatning shakllanishi .....	68
<b>Dushabayeva G.M.</b> Mustaqil ta'limda chizmachilik fanidan kompyuter dasturlarda foydalanishning ahamiyati .....	71
<b>Utanova V.M.</b> Diskurs tahlili: umumiy ta'rif, metodologiya va misol .....	75
<b>Qoraboyev J.B., Qoraboyeva N.N.</b> Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik ma'no tuzilishi .....	78
<b>Umarov A.V.</b> Ilmiy-ma'rifiy media loyihalar – talabalarning mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida .....	81
<b>Qodirova O.S.</b> Maktabgacha ta'lim yoshida bolalarning ta'lim faoliyatiga faol tashabbuskorlik munosabatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	86
<b>Aslonov X.Sh.</b> Dasturlangan labaratoriya ishlariada yarimo'tkazgichlarning ta'qilangan zona kengligi tushunchasi .....	89
<b>Bakirov I.H.</b> Boks sport turida musobaqalarning o'tkazish turlari va musobaqa faoliyati .....	94
<b>Saidg'aniyev S.O.</b> Bolalar uchun sport gimnastikasi .....	98
<b>Tojiboyeva N.T.</b> Ta'lim muhitida o'zini-o'zi boshqarishda qiyin bo'lgan o'smirlarning hissiy qulayligining psixologik jihatları .....	100
<b>Dushabayev D.Sh.</b> Umum ta'lim maktablarda jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish .....	103
<b>Abdullaev G'.A.</b> The method of determination of aerobic and anaerobic threshold by heart rate of athletes in the development of endurance qualities in athletics training (In the case of middle and long distance runners) .....	106
<b>Qurbanova F.M.</b> Talabalarining jamoada ishslash qobilyatlarini kollobratsiya asosida shakllantirishning psixologik xususiyatlari .....	110
<b>Shobduraximova U.T.</b> Tavakkallchilikka asoslangan virtual o'yinlar va ularning jamiyatga salbiy ta'siri .....	113
<b>Hasanova S.K.</b> Development of creative thinking of primary class students based on girls' flows .....	115
<b>No'monova A.N.</b> O'zbekiston ta'lim tizimiga tasviriy san'atning rang tasvir yo'nalishini tadqiq etishning dolzarb masalalari .....	119
<b>Toshtemirov Q.Q.</b> Umumiyo'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy musiqa merosi "shashmaqom" ni o'rganishning ahamiyati .....	122
<b>Gofurjanova N.K.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirokining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni .....	126
<b>IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR</b>	
<b>Yusupova S.N., Bakhronov B.</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muamolari .....	129
<b>Olimova Z.I.</b> Abdulla Avloniyning Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakatiga qo'shgan hissasi .....	132
<b>Mirzayeva B.</b> Maishiy zo'ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati .....	134

3-4- sinflar uchun esa uzunlik o'lchov birliklaridan kilometr, og'irlik o'lchovlaridan sentner, tonnalardan, vaqt o'lchov birliklaridan minut, soat, sutka kabi o'lchovlardan foydalanish mumkin.

Bu usulning afzallikkari shundaki, o'quvchilarning uzunlik, og'irlik hamda vaqt o'lchov birliklari haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. O'zlashtirishi pastroq bo'lgan o'quvchilar ham darsga nisbatan qiziqishi ortib, o'z potensialiga qaraganda ancha yuqori natijalarni qayd etadi. Metodni matematika darslaridan tashqari boshqa darslarga tatbiq etish ham maqsadga muvofiq. Chunki o'quvchi biroz o'zlashtirishi qiyinroq bo'lgan o'lchov birliklari mavzusini har doim yodda saqlashi mumkin.

Farg'ona shahar 10-umumta'lim maktabi 3-sinf o'quvchilarida yuqoridagi kabi metodlarni qo'llash davomida o'quvchilarda ta'lim olishga nisbatan ichki motivatsiyasi va o'z-o'ziga bo'lgan ishonchining ortishi bilan bir qatorda o'quv jarayoni davomida olgan bilimlari mustahkamlanib borishiga erishildi.

2023-2024-o'quv yilining 3-chorak so'ngida o'quvchilardan takroriy test hamda sso'rovnomalar olindi va tahlil qilindi. Bunda interfaol usuldagagi rag'batlantirishlar joriy etilgan 3-“B” sinfida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari yuqori darajasi 43% dan 60% ga, o'rta darajasi 33% dan 30% ga, past darajasi esa 24% dan 10% ga o'zgargan. Shuningdek o'quvchilarda o'z-o'ziga baho berishning eng maqbul adekvat (to'g'ri) darajasi 27% dan 60% ga oshgan. O'quvchilarda o'z-o'ziga adekvat(to'g'ri)baho bera olish ko'nikmalari rivojolangan.

Rag'batlantirish orqali o'quvchilar tarbiyalash va ularning bilimini mustahkamlash o'ziga xos pedagogik jarayon bo'lib, muayyan tamoyillar asosida tanlangan aniqmazmunga ega bo'ladi. O'quvchilarni interfaol usulda rag'batlantirish orqali ularning bilimini mustahlamlash jarayonining mazmuni o'quvchining qiziqishlari, intilishlari va ehtiyojlariga mos tarzda tanlanadi va amalga oshiriladi. Shuningdek, interfaol usulda rag'batlantirish orqali o'quvchilarni tarbiyalash va ularning bilimini mustahkamlash jarayonida tarbiyachilar o'ziga xos didaktik vositalar, usullar, metodlar va pedagogik shart-sharoitlardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanganlarida kutilgan samaradorlikka erishiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Ta'lif-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokamasidagi nutqi. 02.11.2020. <https://www.sbtue.uz/uz/news/view/324>
2. Ильин Е.П. Мотивация и мотиви. — СПб.: Питер, 2002 — 512 с: ил. — (Серия «Мастера психологии»)
3. Rasulova Y., Maqsudova D. Tarbiyaviy ishlar metodikasi (o'quv qo'llamna). - Т. : "Sanostandart" nashriyoti. 2012 y. - 96 bet.
4. Berdiyeva M.M. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyanuvchilarining pedagogik qo'llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish. Ped.fan. bo'yicha fal. dok.... diss. -T: 2020. - 169 b.
5. Axmedova D.X. O'quvchilarni interfaol usulda rag'batlantirish orqali tarbiyalash va intellektini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari (boshlang'ich sinflar misolida). Jamiyat va innovatsiyalar. - 2023. № 9. B. 121-127. ISSN 2181-1415

UO'K: 371.322.8

### **FIZIKA O'QITISH AMALIYOTIDA METAKOGNITIV FAOLIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

<https://zenodo.org/records/13292262>

**O'rinboyev Muxammadzoxir Iqboljon o'g'li**  
*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fizika o'qitish amaliyotida metakognitiv faoliyatlarni faollashtirish usullari va ularning ta'lif jarayonidagi ahamiyati o'rganiladi. O'quvchilarning fizika faniga bo'lgan

*qiziqish darajasini oshirish va metakognitiv strategiyalarni qo'llash bo'yicha yangi metodik ishlanmalar tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** fizika o'qitish, metakognitiv faoliyatlar, metakognitiv strategiya, ta'lif metodikasi, yangi metodik ishlanmalar.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы активизации метапознавательной деятельности в практике преподавания физики и их значение в образовательном процессе. Анализируются новые методические разработки по повышению интереса студентов к физике и использованию метакогнитивных стратегий.

**Ключевые слова:** преподавание физики, метапознавательная деятельность, методика обучения, интерес учащихся, новые методические разработки.

**Abstract.** This article discusses methods for enhancing metacognitive activity in the practice of teaching physics and their importance in the educational process. New methodological developments to increase students' interest in physics and the use of metacognitive strategies are analyzed.

**Key words:** teaching physics, metacognitive activity, teaching methods, student interest, new methodological developments.

Umumiy ta'lif maktablarida fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning metakognitiv faoliyatlarini takomillashtirish zamonaviy ta'lif tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuvlar ta'lif faoliyatini yaxshilash va samaradorligini oshirish uchun muhimdir, chunki ular o'quvchilarga o'z fikr-mulohazalarini aniqlash va qayta qurishda yordam beradi. Fizika darslarida metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini oshiradi va ularning o'rganish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Zamonaviy ta'lif metodlari va texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Shu sababli, fizika o'qitish amaliyotida metakognitiv yondashuvlarni keng qo'llash muhim hisoblanadi.

Metakognitsiya tushunchasi psixologiya va pedagogika sohalarida keng tadqiq etilgan va turli nazariy asoslarga ega. Bu nazariyalar o'quvchilarning o'z-o'zini anglash va o'rganish jarayonlarini qanday nazorat qilishini o'rganishga yordam beradi. Quyida metakognitsiya bilan bog'liq asosiy nazariyalar va ularning ta'lif sohasidagi qo'llanilishi haqida bataysil ma'lumot beriladi. John Flavell metakognitsiya tushunchasini ilmiy adabiyotga kiritgan asosiy olimlardan biridir. Uning ta'rifiga ko'ra, metakognitsiya o'z-o'zini bilish jarayonlarini (masalan, o'z fikrlarini, bilim darajasini va o'rganish strategiyalarini) anglash va ularni samarali boshqarish qobiliyatidir. Flavell metakognitiv jarayonlarni ikki asosiy qismga ajratadi: metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat strategiyalari [1, b. 906-911]. Ushbu ikki komponent o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini tushunish va samarali boshqarish qibiliyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ann Brown o'zining ishlarida metakognitsiyani o'qitish va o'rganish jarayonlarida qo'llashga katta e'tibor bergen. Uning fikricha, metakognitiv ko'nikmalar o'quvchilarga murakkab masalalarni hal qilishda yordam beradi va bu ko'nikmalar o'qituvchilar tomonidan qasddan o'rgatilishi kerak. Brown o'quv materialini tushunish va eslab qolishda metakognitiv strategiyalarning muhimligini ta'kidlaydi, masalan, o'z-o'zini so'roqlash, xulosa chiqarish va bilimlarni o'zaro bog'lash. Lev Vygotskiyning ta'lif nazariyalari orasida, uning "Yaqin Rivojlanish Zonasi" tushunchasi metakognitsiya bilan chambarchas bog'liq. Uning fikricha, o'quvchilar o'zlarining mustaqil hal qila olmaydigan muammolarni, lekin boshqalar yordamida hal qila olishgan darajadagi vazifalarni bajarish orqali eng yaxshi o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi, chunki ular o'z bilimlarini qanday qo'llash va strategiyalarini qanday tanlash kerakligini o'rganadilar. Gregory Schraw va Dennison ularning metakognitiv o'z-o'zini baholash modelini taklif qilishgan [2, b. 71-72]. Ular o'z modellarida metakognitsiyani uch asosiy qismga

ajratadilar: o'z-o'zini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash. Ushbu model o'quvchilarning o'z o'rganish jarayonlarini qanday qabul qilishini va qanday samarali boshqarishini tushunishda muhimdir. Ushbu nazariyalar metakognitsiyaning tushunchasi va uning ta'limgangi rolini chuqurroq tushunish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Har bir nazariya o'quvchilarning o'z bilimlarini qanday rivojlantirish va samarali qo'llashni o'rganishida yordam beradi [3, b. 219-225]. Metakognitsiya — bu o'z o'rganish jarayonini anglash va boshqarish qobiliyatidir. Bu atama lotincha "meta" (yani, o'zaro) va yunoncha "gnosis" (yani, bilish) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, o'z fikrlash jarayonini o'rganishni anglatadi. Metakognitsiya shaxsning o'z bilimini, o'rganish strategiyalarini va o'rganish jarayonini qanday qabul qilishi, tahlil qilishi va nazorat qilishi o'z ichiga oladi [4, b. 41-43].

Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish, empirik tadqiqotlar (so'rovnomalar, kuzatuvalar va eksperimentlar) va statistik tahlil usullari qo'llanildi. O'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqish darajasi va metakognitiv faoliyatlarini faollashtirish usullari sinovdan o'tkazildi va baholandi. Tadqiqotda 200 nafar o'quvchi ishtirok etdi, ular ikki guruhga bo'lindi: eksperimental va nazorat guruhi. Eksperimental guruhda yangi metodik ishlanmalar va metakognitiv strategiyalar qo'llanildi, nazorat guruhi esa an'anaviy usullar asosida o'qitildi. O'quvchilarning qiziqish darajasi va o'rganish samaradorligi maxsus so'rovnomalar va kuzatuvalar orqali baholandi.

Eksperimental guruhda o'quvchilarga metakognitiv strategiyalarni o'rgatish uchun maxsus dars rejasi ishlab chiqildi. Bu rejaga ko'ra, o'quvchilar o'z o'rganish jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash bo'yicha turli mashqlarni bajarishdi. Masalan, har bir darsdan so'ng o'quvchilar o'zlarini baholash va o'z faoliyatlarini tahlil qilish uchun kundalik yozishdi. Ular dars davomida duch kelgan qiyinchiliklarni va ularga qanday echimlar topganliklarini yozib bordilar. Nazorat guruhi esa an'anaviy dars usullari bilan o'qitildi va ularga metakognitiv strategiyalarni qo'llash bo'yicha hech qanday maxsus mashqlar berilmadi.

O'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'z bilimlarini boshqarish ko'nikmalarini o'lchash uchun maxsus tayyorlangan so'rovnomalar va kuzatuvalar asosida ma'lumotlar to'plandi. So'rovnomalar o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqish darajasi va o'rganish samaradorligini baholash uchun mo'ljallangan edi. Ushbu ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, eksperimental va nazorat guruhlarining natijalari solishtirildi va tahlil qilindi. Statistik tahlil natijalari eksperimental guruhning nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni ko'rsatdi. Bu natijalar metakognitiv strategiyalar va yangi metodik ishlanmalarning o'quvchilarning fizika o'qitishdagi muvaffaqiyatlarini oshirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Ko'nikma turi	Eksperimental guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Qiziqish darajasi	90	70
O'rganish samaradorligi	88	65
Mustaqil o'rganish	85	60
Yangi metodlarni qo'llash	87	63

**1-Jadval . O'quvchilarning fizika faniga qiziqish darajasini baholash**

O'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishi va darslarda metakognitiv strategiyalarni qo'llash orqali ularning o'rganish samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Eksperimental guruhi o'quvchilari yangi metodik ishlanmalar yordamida fizika darslarida yuqori natijalarga erishdi.

Ularning mustaqil o'rganish qobiliyatları va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari rivojlandi. Eksperimental guruhning o'quvchilari fizika faniga bo'lgan qiziqish darajasining oshishi va metakognitiv strategiyalarni qo'llash natijasida ta'lim jarayonida yuqori muvaffaqiyatlarga erishdilar. Statistik tahlil natijalari eksperimental guruhning nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni ko'rsatdi. Bu natijalar metakognitiv strategiyalar va yangi metodik ishlanmalarining o'quvchilarning fizika o'qitishdagi muvaffaqiyatlarini oshirishda muhim rol o'yashini tasdiqlaydi.

Metakognitiv yondashuvlar o'quvchilarning o'rganish faoliyatlarini samarali boshqarishni o'rganishlariga va ularning fizika kabi murakkab fanlarni chuqurroq o'zlashtirishlariga imkon beradi. O'quvchilarning o'z bilimlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini oshirish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, yangi metodik ishlanmalar va metakognitiv strategiyalarni qo'llash o'quvchilarning ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va ularning fizika fanida muvaffaqiyatlarini oshiradi. Shu sababli, umumiy ta'lim muktablarida fizika fanini o'qitishda yangi metodik ishlanmalar va metakognitiv yondashuvlarni keng qo'llash tavsiya etiladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Flavell, J. H. (1979). "Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry." *American Psychologist*, 34(10), 906-911.
2. Whitebread, D., & Pino Pasternak, D. (2010). "Metacognition, self-regulation and meta-knowing." In P. Peterson, E. Baker, & B. McGaw (Eds.), *International encyclopedia of education* (3rd ed., pp. 204-210). Elsevier. (Darslik)
3. Nelson, T. O., & Narens, L. (1994). "Why investigate metacognition?" In J. Metcalfe & A. P. Shimamura (Eds.), *Metacognition: Knowing about knowing* (pp. 1-25). MIT Press.
4. Brown, A. L. (1987). "Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms." In F. E. Weinert & R. H. Kluwe (Eds.), *Metacognition, motivation, and understanding* (pp. 65-116). Lawrence Erlbaum Associates.

UO'K. 373,573

### **AMALIY MASHQ VA MASALALARING KONTEKSTUAL ASOSLARI HAMDA UMUMTA'LIM MAKTABLARDA QO'LLANILISHI BO'YICHA PEDAGOGIK -METODIK ASPEKTLAR**

<https://zenodo.org/records/13292269>

**Burxonova Munojatxon Maxkamboyevna  
Sirojidinov Behzod Arabdjonovich  
Andijon davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biologiya fanidan amaliy mashq va masalalar yechishning qulay va sodda usullarini ishlab chiqishning mifik ta'lim tizimidagi, o'quvchilarni bilim samaradorligi hamda o'qituvchining samarali va qulay ish faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** biologiya, biologiya fanidan mashq, masalalar yechish, rivojlanish, kontekstual, aspekt, raqobat.

**Аннотация.** В данной статье говорится о важности разработки удобных и удобных методов практических занятий и решения задач по биологии в системе школьного образования, эффективности знаний учащихся, организации эффективной и удобной работы учителя.

**Ключевые слова:** биология, упражнения, проблемы, развитие, контекстный, аспект, конкуренция.

**Abstract.** This article talks about the importance of developing convenient and simple methods of practical exercises and solving problems in biology in the school education system, the effectiveness of

